

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR

Ro'yxatga olinib
№ 404112-18
2024-yil
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirining
2024-yil "27" dekabr
85 - sonli buyrug'i bilan
tasdiqlangan.



"Rus tili"
yo'nalishi bo'yicha akademik liseylar pedagog xodimlarini
malakasini oshirish kursining o'quv dasturi

OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

Malaka oshirish kursining o'quv dasturi Olty, o'rita maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvoqilashitiruvchi kengashining 2024- yil 24.12. dagi 18 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan

Tavanch modullari:

Samarqand viloyat o'qituvchilarini yangi metodikalarga o'rgatish markazi f.f.n., dots. D.X. Alimova.

Sh. Rashidov nomidagi SamDU Rus va chet el
adabiyoti kafedrasi professori Sh. A. Ishniyazova,

Chuvash davlat universitetining rus va chuvash filologiyasi
jurnalistika fakulteti dekani, prof. Ivanova Alena Mixaylovna.

O'quv dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan (2024-yil " _____" dagi _____-sonli yig'ilish bayonnomasi)

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik liseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi "Akademik liseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik liseylar pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik liseylarda faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarning rus tilini fan sifatida zamonaviy jihatlarini o'rganish, rus tilini o'qitishda yangi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, 4K ko'nikmalarini shakllantiruvchi yondashuvlar, texnologiyalar va usullarni qo'llash hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan birgalikda pedagog xodimlarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan tanlov modullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Mazkur dastur tarkibidagi quyidagi o'quv modullar mazmunini o'z ichiga oladi:

1.1 Rus tilini fan sifatida o'rganishning zamonaviy iihatlari.

1.2 Rus tilini o'qitishda vancij ta'lim texnologiyalari va raqamlashtirish.

1.3. 4K ko'nikmalarini shakllantirish: metodologiyalar, usullar, yondashuvlar, ilmiy maktablar.

1.4. Yakuniy nazorat.

Kursning maqsadi va vazifalari

Akademik liseylar pedagog kadrlarining malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz oshirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik jiseylardagi o'qitish sifati va samadorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;

• kreativ fikrlashning ijtimoiy yordamchi omillarini tahlil etish *malaka va ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- aloqa-muzokaralar olib borish va aloqalarni o'rnatish, suhbatdoshni tinglash va o'z nuqtai nazarini etkazish;
- rus tili darslarida Stem (STEAM) texnologiyalaridan foydalanish;
- 4K ko'nikmalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirishning samarali yo'llarini qo'llash;
- 4K ko'nikmalarini shakllantirish metodikasini o'zlashtirish;
- til o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalarni amaliyotda qo'llash *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Kursning hajmi

Malaka oshirish kursi 8 kredit (48 soat)ni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 4 kredit (24 soat)ga mo'ljallangan tayanch modullari ishdan ajralgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish mintaqaviy markazlarida o'qish orqali hamda ishda ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish shakllarini bajaragan holda kamida 4 kredit yig'ish orqali amalga oshiriladi. Mustaqil malaka oshirish shaklida pedagog xodimlar tanlov modullarini o'zlashtirish orqali hamda so'ngi bir yilda bajaragan kasbiy faoliyat natijalari bo'yicha kreditlar yig'ib boradilar. Malaka oshirish davomida kamida 8 kredit birligini to'plagan pedagog xodimlarga QR-kod tushirilgan elektron shakldagi sertifikat taqdim etiladi.

“RUS TILI” YO'NALISHI BO'YICHA MALAKA OSHIRISH KURSI TAYANCH O'QUV MODULLARINING MAZMUNI

1.1. Rus tilini fan sifatida o'rganishning zamonaviy jihatlari.

Rus tili fanining asosiy nazariyalari va ularni amaliyotga tatbiq etishning samarali usul hamda vositalari (ularni qanday qilib o'quvchining shaxsiy, yaxlit rivojlanishi bilan bog'lash mumkinligi). Rus tili fanlari bo'yicha murakkab mavzularni o'qitish samadorligini oshirish yo'llari. Rus tili fanini o'qitish jarayonidagi o'zgarishlar, darsliklar va qo'llanmalar tahlil qilish, o'quv-metodik qo'llanmalarining farqlanishi, metodik qo'llanmalarining yutuqlari va kamchiliklari; mavzular o'rnatidagi munosabatlar va mutanositlik. Dars davomida har bir o'quvchiga o'z g'oyalari va qarashlarini ifoda etish imkoniyatini berish. Rus tili fanini o'qitishda aloqa va kooperatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy strategiyalari va usullaridan foydalanish. Aloqa o'rnatishning asosiy qoidalari. Aloqa-muzokaralar olib borish va aloqalarni o'rnatish, suhbatdoshni tinglash va o'z nuqtai nazarini etkazish qobiliyati.

- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy raqamli texnologiyalar va xorijiy tillarning samarali o'zlashtirilishini ta'minlash;
- o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

Kurs yakunida tinglovchilar quyidagi yo'nalishlarda bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- rus tili fanining asosiy nazariyalari va ularni amaliyotga tatbiq etishning samarali usul hamda vositalarini;
- rus tili fanlari bo'yicha murakkab mavzularni o'qitish samadorligini oshirish yo'llarini;
- aloqa o'rnatishning asosiy qoidalarini;
- rus tili fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari ilg'or ta'lim tizimlari va pedagogik tajribalarni;
- 4K-kollaboratsiya, kommunikatsiya, kritik va kreativ fikrlash ko'nikmalarining izohi, ularning domenlari va xususiyatlarini;
- kritik va kreativ fikrlashni shakllantiruvchi yondashuvlar, texnologiyalar va usullarni *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- dars davomida har bir o'quvchiga o'z g'oyalari va qarashlarini ifoda etish imkoniyatini berish;
- zamonaviy ta'lim texnologiyalari va interaktiv usullardan foydalanish;
- o'quv vaziyatlari va o'quv topshiriqlari modellardan samarali foydalanish;
- rus tilini o'qitishda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy strategiyalari va usullaridan foydalanish;
- rus tili fanini o'qitishda aloqa va kooperatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy strategiyalari va usullaridan foydalanish;
- rus tilining samarali darslarini o'tkazish bo'yicha amaliy ishlarni yo'lga qo'yish;
- rus tili fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash;
- ta'lim va tarbiya faoliyatida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish usullari, shakllari va texnologiyalaridan foydalanish;

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovasion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ishtidan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Mustaqil malaka oshirish o'quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyat hamda mustaqil tajriba o'tirish natijalariga ajratilgan kreditlarni yig'ish orqali amalga oshiriladi. Kasbiy faoliyat turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish, stajirovka o'tash; iqtidorli va iste'dodli o'quvchilar bilan ishlash; ilmiy anjumanlarda ma'ruza bilan qatnashish; ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish; o'quv adabiyotlari (hammualliflikdagi darslik, o'quv qo'llanma)ni tayyorlash va nashrdan chiqarish. Mustaqil tajriba o'tirishda akademik liseylar pedagog xodimlari o'z ehtiyojlari va tanlovlardan kelib chiqib, onlayn shakldagi tanlov modul dasturlarini o'zlashtiradilar. Mustaqil malaka oshirish shakli bo'yicha so'nggi bir yilda to'plangan kredit birliklari malaka oshirish natijalarini umumlashtirishda hisobga olinadi. Pedagog xodimlarning mustaqil malaka oshirish natijalari elektron portfolio tizimida o'z aksini topadi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soba bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

1.2. Rus tilini o'qitishda yangi ta'lim texnologiyalari va raqamlashtirish.

Rus tili fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari ilg'or ta'lim tizimlari va pedagogik tajriba. Rus tili darslarida Stem (STEAM) texnologiyalaridan foydalanish. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va interaktiv usullardan foydalanish. Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda rus tili fanini o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari. Mavzuga yo'naltirilgan ta'lim, evristik ta'lim texnologiyalari, dialog texnologiyalari, o'yin texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sog'liqni saqlash texnologiyalari. Rus tilining samarali darslarini o'tkazish bo'yicha amaliy ishlar. Rus tili fanlarining integratsiyasi dolzarb uslubiy muammo sifatida.

1.3. 4K ko'nikmalarini shakllantirish: metodologiyalar, usullar, yondashuvlar, ilmiy maktablar.

XXI asr ko'nikmalari va turlari haqida umumiy tushuncha. 4K-kollaboratsiya, kommunikatsiya, kritik va kreativ fikrlash ko'nikmalarining izohi, ularning domenlari va xususiyatlari, ulardan ko'zlangan maqsad va vazifalar tahlili. Kritik va kreativ fikrlashni shakllantiruvchi yondashuvlar, texnologiyalar va usullar. Kreativ fikrlashning ijtimoiy yordamchi omillari: ta'lim yondashuvlari, sinfdagi muhit, ijodiy faoliyat, muammoni kreativ hal qilish. Rus tili fani bo'yicha sinflar kesimida 4K ko'nikmalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirishning samarali yo'llari. O'quv vaziyatlari va o'quv topshiriqlari modellari. Ta'lim va tarbiya faoliyatida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish usullari, shakllari va texnologiyalari. Rus tilini o'qitishda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy strategiyalari va usullaridan foydalanish.

1.4. Yakuniy nazorat.

Yakuniy nazorat tayanch modullari mazmunidan kelib chiqib onlayn test sinovlari asosida tashkil etiladi. Onlayn test sinovlarida 60 foizdan yuqori natijaga erishgan tinglovchilarga tayanch modullarini to'liq o'zlashtirgan hisoblanadi va ularga 4 kredit ajratiladi. Onlayn test sinovlarida 60 foizdan kam ko'rsatkichga erishgan tinglovchilarga ikki marta qayta topshirish imkoniyati beriladi. Qayta topshirish natijasida onlayn test sinovlaridan 60 foizdan kam ko'rsatkichga erishgan tinglovchilar kursni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: "O'zbekiston", 2018. – 507 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – T.: "O'zbekiston", 2019. – 400 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – "O'zbekiston", 2020. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. – 464 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabr "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3-dekabrda qabul qilingan "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik liseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4910-son Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 1-iyundagi "Akademik liseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" 296-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

13. Бабаева З.С., Назарова Ш.И. УМК. Методика преподавания русского языка и литературного чтения. – Т.: 2017.
14. Бабаева З.С., Назарова Ш.И. УМК. Современные подходы и инновации в преподавании русского языка и литературного чтения. – Т.: 2017.

15. Джайлз А. Технологии использования интерактивных государственных услуг в сфере образования (методическое пособие для слушателей курсов повышения квалификации). – СИПКРО имени Авлони, 2016.
16. Ишмухамедов Р.Д, Юлдашев М.А, Инновационные педагогические технологии в образовании и воспитании. – Т.: Нихол, 2013.
17. Крючкова, Л.С. Практическая методика обучения русскому языку как русскому: учебное пособие [Электронный ресурс]: учеб. пособие /Л.С. Крючкова, Н.В. Мошинская. – Электрон. дан. – М.: ФЛИНТА, 2017. 477с. Режим доступа: <https://e.lanbook.com/book/92724>.
18. Милославская, С.К. Русский язык как иностранный в истории становления европейского образа России [Электронный ресурс]: монография /С.К. Милославская. Электрон. дан. – М.: ФЛИНТА, 2017. – 400с. Режим доступа: <https://e.lanbook.com/book/100055>. – Загл. с экрана.
19. Пахрутдинов Ш. Глобальное информационное общество и медиаобразование. – Т.: 2015.
20. Рахимова М.Э., Магдиева С.С. Мультимедийный учебник по литературе для иноязычных групп академических лицеев и профессиональных колледжей. – Т.: Фан ва технология, 2014. – 270с. Эл.в.
21. Рустамова Н. Медиаобразование и медиакультура: теория и практика. – Т.: Редактор, 2015.
22. Функциональная грамотность как результат образования [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://ime-yurga.kuz-edu.ru/files/ime-yurga/> [Дата обращения: 29.11.2021].

IV. Internet saytlar

23. <http://edu.uz>
24. <http://lex.uz>
25. <http://bimm.uz>
26. <http://ziyonet.uz>
27. <http://natlib.uz>
28. <http://www.rambler.ru>
29. <http://kopilkaurokov.ru>
30. www.dnevnik.ru



"ISHLAB CHIQLGAN":

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash
va malakasini kshirish instituti

Direktor U.Sh.Begimkulov

"10" 12 2024-y.

M.O.



Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat

universiteti

Rektor R.I.Xalmuratov

"10" 12 2024-y.

M.O.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti huzuridagi pedagog kadrlarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini
oshirish mintaqaviy markazi

Direktor A.I.Babayarov

"10" 12 2024-y.

M.O.



"KELISHILGAN":

Kadrlarni malakasini oshirish va qayta
tayyorlash bo'limi

boshlig'i F.T.Esanboyev

"10" 12 2024-y.

M.O.